Qodirov Abrorbek Alisher o'gli

Andijon Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich talabasi

abrorqodirov003@gmail.com

Zahiriddin Muhammad Bobur davrida davlat boshqaruvi

Annotatsiya: Har bir tarixchi tarix sohasini mukammal o'rganishda Boburiylar davrini shu jumladan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida bilish zarur. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning tarix fanida tutgan o'rni va uning davlat boshqaruvi haqida so'z boradi. Movaraunnahr tarixida o'chmas iz qoldirgan, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston tarixida tub burilish yasagan, bu mamlakatlar xalqlarining madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirgan temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda tarqoq mamlakatning siyosiy birligini taminlab, boburiylar saltanatiga asos solgan, mamlakat tarixida yangi sahifa ochgan shoh edi.

Kalit so'zlar: Bobur, Movaraunnahr, Hindiston, Podsho, Vazir, Davlat, Boshqaruv, Devon, Viloyat.

Abstract: Every historian needs to know about the Babur period, including Zahiruddin Muhammad Babur, in order to fully study the field of history. The article talks about the role of Zahiriddin Muhammad Babur in history and his state management. The Timurid prince Zahiruddin Muhammad Babur, who left an indelible mark in the history of Movaraunnahr, made a radical change in the history of Afghanistan, Pakistan and India, and made significant changes in the cultural, social and economic life of the peoples of these countries, ensured the political unity of the divided country in India and laid the foundation for the Babur dynasty. was a king who opened a new page in the country's history.

Key words: Babur, Movaraunnahr, India, King, Minister, State, Administration, Devon, Province.

Аннотация: Каждому историку необходимо знать о периоде Бабура, включая Захируддина Мухаммада Бабура, чтобы полностью изучить область истории. В статье

говорится о роли Захириддина Мухаммада Бабура в истории и его государственном управлении. Тимуридский князь Захируддин Мухаммад Бабур, оставивший неизгладимый след в истории Мовараунnахра, внес коренной перелом в историю Афганистана, Пакистана и Индии, внес существенные изменения в культурную, социальную и экономическую жизнь народов этих стран. , обеспечивший политическое единство разделенной страны в Индии и положивший начало династии Бабур, был королем, открывшим новую страницу в истории страны.

Ключевые слова: Бабур, Мовараунnар, Индия, король, министр, государство, администрация, Девон, провинция.

Ulug’ ajdodimiz, buyuk davlat arbobi, mahoratli sarkarda, qomusiy alloma va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevral kuni Farg’ona viloyatining poytaxti Andijon shahrida tug’ilgan. Bobur yuqori saviyali muallim va murabbiylar qo’lida bilim oldi, tarbiyalandi. U juda tez orada xat-savodini chiqarib, ilm-fan, adabiyot va tarix bilan shug’ullana boshlaydi. Boburiylar sulolasining Hindiston tarixida tutgan o’rni haqida Valdemar Xansen shunday fikr bildirgan, “Hindiston va uning 8 ming yillik tarixi bamisoli bir tovus bo’lsa, o’sha ko’p ming yillik tarixdagi boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu tovusning gultojidur “[1]. Boburiylar davlat boshqaruvining samarali usullarini ishlab chiqqanligi, mamlakatda fan va madaniyat rivojiga homiylik qilgan, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo’shgan. Hind tarixnavisi L.P Sharmanning tabiri bilan aytganda “ Podshohga asosan ikkita mas’uliyat – “Jahonboniy”- ya’ni davlatni boshqarish tizg’inini qo’lda mahkam tutish va “Jahongiriy”- ya’ni saltanat hududini kengaytirish mas’uliyati yuklatilganligi haqida fikr bildiradi. Boburiylar davlati siyosatining ya’na bir xususiyati shunda ediki, ular davlatni boshqarishda fuqaro e’tiqod qiladigan dinlarga nisbatan beg’arazlik bilan xolisona siyosat olib borgan. Mashhur Hind tarixnavisi Shri Ram Sharmanning yozishicha, Boburiylar Hindistonni egallagan bo’lsalar ham, ular qo’l ostidagi mahalliy hindlarning hurmatini qozona olganlar va ularga ma’qul bo’lgan an’ana va udumlarni nishonlaganlar. Davlat hokimiyatidagi davlat ma’muriy boshqaruv idoralari tizimidagi asosiy markaziy idora tarmoqlari hind tarixchisi V. D. Mohajonning

ta’riflashicha quyidagilardan iborat bo’lgan: 1. Moliya ishlari vaziri (xazinabon) va u rahbarlik qiladigan soliqlar yig’ish bo’limi. Bu idora boshlig’i “Devoni a’lo “ deb atalib, uning idorasi tarmog’i oliy devon hisoblangan. 2. Saltanat ichki ishlari ish boshqaruvi idorasi. Bu idora “Xoni zamon “ yoki bosh dorug’a tomonidan boshqarilgan. 3. Harbiy moliya ishlari boshqarmasi. Bu idora harbiy lavozim egalariga maosh to’lash va ushbu tizimning sarf-harajatlarini hisob-kitob qilish bilan shug’ullangan. Bu idoraga saltanat baxshisi bosh-qosh bo’lar edi. 4. Fuqarolik va jinoiy ishlarning hal etilishini nazorat qiluvchi adliya ishlari idorasi. Bu idora “Qozi-ul-quzzot” ya’ni bosh qozi nazorati ostida ish olib borgan. 5.Diniy tashkilotlarga tushadigan kirimlar, ya’ni hayriya va ehsonlar xisobini olib boradigan, hayriya ishlari bo’limi, Bu ishlar uchun “Sadr us-sudur”, ya’ni bosh sadr mutasaddi edi. 6. Fuqarolarning ahloqi va imom-etiqodini kuzatib boradigan ma’naviyat bo’limi. Bu idoraga bosh muxtasib rahbarlik qilardi. 7. Harbiy artilleriya (to’pxona) bo’limi. Bu idora harbiy qurol-aslaha zahirasi bilan shug’ullanar edi. Uning rahbari esa “Miri otish” yohud “Dorug’a to’pxona” deb atalgan. 8. Axborot va xufiya xabarlar bo’limi. Bu bo’lim boshlig’i “Dorug’ai darak-shavqi “ deb atalib, u mamlakatda bo’lib o’tayotgan voqea-hodisalar haqida podshohni xabardar qilib turish uchun mutasaddi edi. 9. Pul zarb qilish boshqarmasi. Bu idoraga ham maxsus dorug’a rahbarlik qilardi

---

[1]Shamsutdinov R, Abdullayev F, Abdullayev M, Buyuk Boburiylar saltanati. Andijon- 1995-yil.

Abul Fazlning yozishicha, mamlakat fuqarolari to’rt toifaga bo’lingan: 1. Jangchilar 2. Olimlar va yozuvchilar. 3. San’atkor va savdogarlar. 4. Dehqonlar. Shuningdek saltanatni to’rtta tabaqa boshqarganligi aytib o’tiladi. Birinchi tabaqa Numoni davlat bo’lib, bunga beklar va amirlar kirgan. Mazkur tabaqa ichida bir qancha mansablar bo’lgan. Masalan, podshoh saroyi davlat ishlariga rahbarlik qilgan bu kishilar 13 ta vazirlikda ish olib borganlar, ya’ni 13 ta vazirlik joriy qilingan. Ularning har biri alohida jabhaga bosh-qosh bo’lib o’sha sohaning ishlarini nazorat qilib borganlar. Ikkinchi tabaqa Avliyo Nusrat ya’ni zafar yordamchilari deb atalgan. Bu nom vazirga va moliyaviy ishlar bilan band bo’lgan kishilarga

berilgan. Ya'ni ular vazirlar qo'l ostida moliyaviy ishlar bilan shug'ullangan ma'murlarga berilgan. Asxobi suxbat deb nomlangan uchinchi tabaqaga podshoning doimiy suhbatida bo'lib turuvchi kishilar kirgan. Ular jumlasiga sadrlar ya'ni shariat ishlari boshlig'i, adolat ishlari nodiri, qozilar, tabiblar va boshqalar kirgan. Arbobi xizmat deb atalgan to'rtinchi tabaqaga podshoga xizmat qiluvchilar kirgan. Boburiylar saltanatida uzoq vaqt amalda bo'lgan mansab va idoralar quyidagilardir. 1. Vaqil-bosh vazir. 2. Vazir-ma'naviy ishlarning boshlig'i, agar bosh vazir yuk bo'lsa uning o'rnini egallagan. 3. Xoni somon-saroy va unga bog'liq keng tashkilot rahbari. 4. Miri baxshi-askariy ishlarning harbiy va ma'naviy boshlig'i 5. Sadri Qul-diniy ishlar rahbari. 6. Qoqiul quzzot- adolat ishlari noziri. 7. Muxtasib diniy-axloqiy ishlar targ'ibotchisi 8. Sorug'a-axborot va xabarlashuv ishlari boshlig'i.[2] Boburiylar davridagi davlat lavozimlari.

Vakil. Vakil lavozimi egasi podshoh tomonidan tayinlanib, uning nomidan ish ko'rish vakolatiga ega bo'lgan bosh vazir. Ya'ni Otaliqqa o'xshash davlat lavozimi. Vazir yoxud devonbegi. Vazir lavozimidagi mansabdor bosh vazir hisoblanib, u moliya ishlariga ham ma'sul bo'lgani uchun unga devonbegi deb ham qaralar edi-yu, biroq devonbegilarning hammasi ham bosh vazir maqomiga ega bo'lavermasdi. Aslida "Vazir" lavozimi egasi, asosan, moliya va davlat xazinasi ishlari uchun mutasaddi bo'lib, keyingi davrlarda unga qo'shimcha vazifa tarzida boshqa idoralar faoliyatini nazorat qilish huquqi berilgan. Shuning uchun saltanat ishlarini boshqarish uchun podshohning tajribasi yetarli bo'lmagan yoki maishatga berilib ketgan paytlarda harbiy vazir, ya'ni qo'shinni boshqarish ishlari bilan ham shug'ullangan. "Vazir" lavozimi egasi, asosan, fuqorolik ishlari bilan shug'ullanib, soliq yig'ish va to'lov ishlari bo'yicha hujjatlar uning idorasiga kelib tushar va bu yerdan viloyatlarning tegishli idoralariga ijro uchun yuborilar edi. Zarur hollardagina u shoh bilan maslahatlashar va uning buyrug'i asosida ish olib borgan.

---

[2] G'afurjon Satimov . Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi. – Toshkent-2018.18-bet

Vazirning ikkita muovini ta’sis etilgan bo’lib, ularning biri “Devoni om” – saltanatdagi mansabdorlarga maosh to’lash ishlari bilan, ikkinchisi esa “Devoni xos”- saroyga tegishli yerlardan olinadigan daromadlarni hisob-kitob qilish bilan shug’ullangan.[3]

Mir-Baxshi. Mir-Baxshining asosiy vazifasi saltanat xazinasidan to’lanadigan barcha chiqimlarni hisob-kitob qilishdan iborat edi. Hind tarixchisi Ibn Xasanning ta’kidlashicha, Baxshi markaziy hukumat idoralarining barchasiga o’z ta’sirini o’tkazgan. Barcha mansabdorlar “…nazariy jihatdan harbiy lavozim egasi va harbiy boshqarmaga tobe hisoblanar edi “ [2] va ularga to’lanadigan maosh hajmi Baxshining sinchkov nazaridan o’tishi lozim bo’lgan. Qo’shinning ilg’or markaziy qismlari yohud chap va o’ng qanotida jang olib boradigan harbiy sarkardalarni mansabga tayinlash ishlariga ham Baxshi ma’sul edi. Sarbozlarning harbiy hizmatga olish, harbiy mansabdorlar ixtiyorida turishi lozim bo’lgan jangovar otlarning miqdorini belgilash, sarbozlarning harbiy mahoratini oliy darajada saqlab turish, harbiy mashqlar o’tkazib turish, jangchi otlar va fillarni harbiy ko’rikdan muntazam o’tkazish, harbiy yurishlar davomida qo’shinni zarur asbob-anjom va qurol-aslaha bilan ta’minlab turish ishlari Baxshi nazorati ostida amalga oshirilgan.

Xoni zamon. “Xoni zamon” saltanatdagi bosh ish boshqaruvchi hisoblanib, u podshoh ixtiyoridagi yerlarda yetishtiriladigan va unga tegishli qorxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni nazorat qilish, saqlash va xo’jalik xarajatlariga safarbar qilish ishlari bilan shug’ullangan. U podshohga harbiy yurishlari va safarlarda hamrohlik qilar hamda podshohning shaxsiy xizmatkorlari ishlarini tashkillashtirgan. Ushbu lavozim eng ma’suliyatli mansablardan bo’lgani uchun unga podshoh, o’ziga sadoqatli kishilarini tayinlar, zaur hollarda esa Xoni zamon vazirlik vazifasini ham bajarar edi.

Sadr us-sudur. Sadr us-sudur saltanatdagi diniy masalalar bo’yicha bosh sardor hisoblanib, u podshoh bilan omma o’rtasida, hamda podshoh bilan olimu ulamolar o’rtasidagi vositachi hisoblangan. Hayriya ishlari uchun sarflandigan mablag’ ham uning ixtiyorida edi. Har bir viloyatda unga hisob beradigan sadrlik lavozimi ta’sis etilgan bo’lib, ular mansabga

tayinlanayotganda soliq to'lashdan ozod qilingan yer egalari ro'yhati bilan tanishtirib qo'yilardi.

Muxtasib. Muxtasib fuqarolarning ahloqiy me'yor talablariga to'la rioya qilishlarini, ya'ni ma'naviy qiyofasi zamon talabiga javob bera olishini kuzatib boradigan nazoratchi hisoblangan.

Qozi ul-quzzot. Qozi ul-quzzot yoki bosh qozi saltanatdagi adliya ishlari uchun mas'ul mansabdor bo'lib, barcha huquqiy masalalarning shariat talablari asosida

[3]Ibn Hassan.The Central Structure of the Mughul Empire. Delhi, 1970.

adolat bilan hal etilishini ta'minlagan.

Devoni buyutot. Bu mansab egasi vafot etgan mulkdorlarning mol-mulkini xisob-kitob qilib, mulkning ma'lum miqdorini uning merosxo'rlariga qoldirib, qolgan

qismini davlat ixtiyoriga olish ishlarini nazorat qilardi.

Miri otish. "Miri otish" yoki "Dorug'ai to'pxona" qurolli kuchlar ixtiyoridagi barcha qurol-aslaha, ya'ni to'plar, miltiqlar va shunga o'xshash porohli otish qurollari tayorlash ishlari bilan mashg'ul bo'ladigan ustaxona boshlig'i .

Dorug'ai darak-shavqi. Bu mansab egasi, asosan, mamlakat hududida xat-xabarlar yetkazish va choparlik ishlarini tashkil qilish hamda xufia axborot yig'ish ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Viloyatlar ma'muriyati. Hind tarixchisi Ser Jodul Sarkorning fikricha, boburiylar hukumatiga qarashli viloyatlar va xonliklarning ma'muriy idoralari, markaziy hokimiyat ma'muriyatining hajmi kichraytirilgan tizimning o'zginasidir. Saltanat egasi bo'lmish podshohning asosiy vazifasi " jahongirlik" ya'ni, saltanat hududini muntazam kengaytirishdan iborat bo'lgani uchun unga qarashli viloyatlar soni o'zgarib turgan.

Xulosa qilib aytganda, Bobur Hindistonda, birinchi navbatda, davlatchilik siyosatini mustahkamlagan, mayda-mayda feodal, rojaliklarga bo'linib ketgan yurtni yaxlit davlatga aylantirgan, o'lka viloyatlarini markaziy saltanatga birlashtirishga intilgan va bu borada

ulkan natijalarga erishgan. Davlat boshqaruvida shaxs masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi, ko'pincha nomi etirof etilgan lavozimlar faoliyatini o'zi boshqarayotgan saltanat me'yorlari bilan qiyoslagan. Bobur Hindiston tarixida yangicha davlat tuzishga kirishdi, yurt osoyishtaligini ta'minlashda, raiyat, sipoh va beklar bilan yuksak darajada insoniy munosabatda bo'lgan, Ahamiyatli tomoni, o'z davridagi boshqa hukmdorlardan farqli ravishda, Bobur saltanatida bu bo'limlarning har biri davlat ishlarida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'afurjon Satimov. Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi,- Toshkent-2018.
2. G'afurjon Satimov . Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri, Toshkent-2008.
3. Shamsutdinov R, Abdullayev F, Abdullayev M, Buyuk Boburiylar saltanati. Andijon-1995-yil.
4. Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanti, Toshkent- 1996-yil.
5. L. P. Sharma. Boburiylar Saltanati. Toshkent- 1998.